



Surxondaryo viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-sentabr

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagি ulushi **76,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **10,1** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-sentabrida **6,4** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **78,0** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2126 ta, savdoda 1792 ta, sanoatda 1566 ta, qurilishda 264 ta, yashash va ovqatlanishda 207 ta, tashish va saqlashda 83 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
33,2 %



Savdo
28,0 %



Sanoat
24,5 %



Qurilish
4,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
3,2 %



Tashish va saqlash
1,3 %

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	15000	21775	6775
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	3593	6395	2802
Kichik tadbirkorlikning ulushlari:				
YaHM	%	78,1	76,0	-2,1
Sanoat	%	47,1	41,9	-5,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	98,9	98,2	-0,7
Investitsiya	%	62,3	60,8	-1,5
Qurilish	%	83,9	85,9	2,0
Savdo	%	90,9	90,7	0,2
Xizmatlar	%	70,8	67,6	-3,2
Yuk tashish	%	75,2	72,7	-2,5
Yuk aylanmasi	%	87,2	86,1	-1,1
Yo'lovchi tashish	%	93,5	93,7	0,2
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,9	95,8	-0,1
Eksport	%	76,4	56,8	-19,6
Import	%	83,9	92,1	8,2



**2020- yilning yanvar-sentabrida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, % da**




2020- yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar bo'yicha eng ko'pi Denov tumanida – 811 ta, Qumqo'rg'on tumanida – 689 ta, Termiz shahrida – 659 ta, Jarqo'rg'on tumanida – 499 ta, Sho'rchi tumanida – 494 ta va Qiziriq tumanida – 443 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Bandixon tumanida – 198 tani tashkil etgan.

**Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan
kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Surxondaryo viloyati	3593	6395	197
<i>shaharlar:</i>			
Termiz sh.	684	659	-25
<i>tumanlar:</i>			
Angor	180	246	66
Bandixon	-	198	198
Boysun	139	371	232
Denov	501	811	310
Jarqo'rg'on	247	499	252
Qumqo'rg'on	236	689	453
Qiziriq	192	443	251
Muzrabot	141	285	144
Oltinsoy	121	318	197
Sariosiyo	153	256	103
Termiz	302	368	66
Uzun	199	329	130
Sherobod	205	429	224
Sho'rchi	293	494	201



**2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Denov tumani – 12,7 %, Qumqo'rg'on tumani – 10,8 %, Termiz shahri – 10,3 %, Jarqo'rg'on tumani – 7,8 %, Sho'rchi tumani – 7,7 %, Qiziriq tumani – 6,9 % va Sherobod tumani – 6,7 % ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda


	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Jami	3593	6395	2802
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	333	2126	1793
Sanoat	806	1566	760
Qurilish	506	264	-242
Savdo	1287	1792	505
Tashish va saqlash	108	83	-25
Yashash va ovqatlanish bo'vicha xizmatlar	267	207	-60
Axborot va aloqa	41	56	15
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	45	37	-8
Boshqa faoliyat turlari	200	264	64

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmogi, birlikda:





Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Termiz tumanida 23,4 birlik, Termiz shahrida 21,3 birlik, Qiziriq tumanida 14,2 birlik, Boysun tumanida 12,7 birlik, Sherobod tumanida 10,6 birlik, Muzrabet tumanida 9,9 birlikni va Angor tumanida 9,4 birlik tashkil etgan. Bandixon va Sariosiyo tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 7,5 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)

- **Eng yuqori ko'rsatkich**
Termiz tumani - **23,4** birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**
Jarqo'rg'on tumani - **9,3** birlik;

- **Eng past ko'rsatkich**
Bandixon tumani - **7,5** birlik;

Bundan ko'rinib turibdiki, Termiz tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Bandixon tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar - sentabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 76,0 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-sentabrida 78,1 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikni
tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Surxondaryo viloyati	41,9	85,9	67,6	60,8
<i>shaharlar:</i>				
Termiz sh.	31,9	97,2	39,2	49,5
<i>tumanlar:</i>				
Angor	89,6	100,0	85,2	72,1
Bandixon	100,0	87,7	94,4	100,0
Boysun	94,8	100,0	96,3	50,7
Denov	42,0	96,5	93,3	82,2
Jarqo'rg'on	28,1	95,9	89,1	48,5
Qumqo'rg'on	30,7	74,8	90,2	72,9
Qiziriq	82,2	94,5	94,2	55,3
Muzrabot	37,1	100,0	95,2	75,4
Oltinsoy	100,0	100,0	94,1	75,7
Sariosiyo	55,0	43,1	88,5	54,7
Termiz	91,3	99,6	81,6	61,2
Uzun	100,0	64,3	89,2	74,4
Sherobod	24,5	94,2	93,5	46,5
Sho'rchi	25,1	100,0	91,9	78,3

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Bandixon (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Uzun (100,0 %),
Boysun (94,8 %),
Termiz (91,3 %) va
Angor (89,6 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Angor (100,0 %),
Boysun (100,0 %),
Muzrabot (100,0 %),
Oltinsoy (100,0 %),
Sho'rchi (100,0 %) va
Termiz (99,6 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-


Boysun (96,3 %),
Muzrabot (95,2 %),
Bandixon (94,4 %),
Qiziriq (94,2 %)
Oltinsoy (94,1 %) va
Sherobod (93,5 %)
tumanlarida.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar - sentabrida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1431,8 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 41,9 %) tashkil qildi;
- 2 3080,2 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 60,8 %) o'zlashtirildi va 2019 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 80,5 % ni tashkil qildi;
- 3 2910,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 85,9 %) bajarildi va 2019 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil qildi;
- 4 3816,0 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 67,6 %), 2019 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 97,6 % ni tashkil qildi;
- 5 chakana savdo tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 90,7 % yoki 7747,5 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 92,1 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 86,2 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 56,8 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi (o'sish sur'ati 60,5 % ni tashkil qildi);
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 1,8 % ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,1 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 9,9 % ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 95,8 %) kamaygan.




Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Bandixon tumanida – 100,0%, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Muzrabot tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Uzun tumanida – 100,0 %, Angor tumanida – 100,0 %, Boysun tumanida – 99,8 %, Sariosiyo tumanida – 95,0 % ni, eng past ko'rsatkich Sherobod tumanida – 28,3 % ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon tumanida – 100,0 %, Boysun tumanida – 100,0 %, Muzrabet tumanida – 100,0 %, Oltinsoy tumanida – 100,0 %, Qiziriq tumanida – 100,0 %, Uzun tumanida – 100,0 %. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo tumanida - 50,7 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi





Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (237,7 mlrd. so'm), Denov (194,3 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (173,2 mlrd. so'm), Sariosiyo (119,7 mlrd. so'm) va Termiz (112,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Bandixon tumanida (1,7 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo‘yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Boysun (94,8 %), Termiz tumani (91,3 %), Angor tumani (89,6 %), Qiziriq tumani (82,2 %), Sariosiyo tumani (55,0 %) va Denov tumani (42,0 %) tashkil etdi. Sherobod tumanida (24,5%) kichik tadbi rkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov tumani 2014,6 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar – sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 %), Termiz shahri - 1215,2 mlrd. so'm (109,0 %), Sho'rchi tumani 691,9 mlrd. so'm (86,7 %) va Jarqo'rg'on tumani 423,2 mlrd. so'm (84,5 %) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri - 880,6 mlrd. so'm (2019-yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 %), Sariosiyo tumani 265,0 mlrd. so'm (128,3 %), Denov tumani 243,0 mlrd. so'm (99,8 %), Boysun tumani 236,0 mlrd. so'm (105,1 %) hamda Sherobod tumanida 213,4 mlrd. so'm (116,5 %) qayd etildi.





2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri - 1013,4 mld. so'm, (2019-yilning yanvar – sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 90,1 %), Denov tumani 932,6 mld. so'm (101,6 %) Sariosiyo tumani 195,9 mld. so'm (99,9 %), So'rchi tumani 185,7 mld. so'm (100,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **800** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 4,3 % (35 ta), sanoatda – 11,8 % (94 ta), qurilishda – 15,6 % (125 ta), savdoda – 38,5 % (308 ta) va xizmatlar sohasida – 29,8 % (238 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan
kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qulay iqtisodiy vaziyat qurilish korxonalarida 40,7 punktga, xizmatlar sohasida 32,3 punktga, savdoda 24,8 punktga va sanoat korxonalarida 17,0 punktga pasaydi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 17,4 punktga, xizmatlar sohasi 14,9 punktga, sanoat sohasida 10,1 punktga, savdo sohasida 8,4 punktga va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 4,4 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 13,2 punktg'a, qurilish korxonalari 10,5 punktg'a, sanoat korxonalari 5,1 punktg'a, savdo sohasi 2,6 punktg'a va xizmatlar sohasi 0,4 punktg'a yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilishda 1,6 punktg'a va xizmatlar sohasida 1,3 punktg'a ko'paydi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillarda III chorakdag'i iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi,% da






2020- yilning III choragi yakunlariga ko‘ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 171 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari – 39 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 22,8 % i), qurilish – 8 ta (4,7 % i), savdo – 52 ta (30,4 % i) va xizmatlar – 20 ta (11,7 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi – 52 ta (30,4 %).

2020- yil III chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasi 33,9 punktga, qurilish korxonalari 27,3 punktga va savdo sohasi 2,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda barcha faoliyat turlari bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



2019-2020- yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko‘ra, 2020- yilning III choragini o‘tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kamaygan.

Shuningdek, o‘tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagisi iqtisodiy vaziyat o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi sanoatda 11,2 punktga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi korxonalarida 10,8 punktga, qurilishda 10,7 punktga va xizmatlar sohasida esa 8,3 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 5,0 punktga va sanoatda 2,5 punktga oshgan.



2019-2020- yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

